

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**NORMURODOV SHAROFIDDIN MUXIDDINOVICH**

**10-11 SINF O‘QUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI  
RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY TA‘MINOTINI  
TAKOMILLASHTIRISH.**

**13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (Phd) on  
pedagogical sciences**

**Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich**

10-11 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish.....3

**Нормуродов Шарофиддин Мухиддинович**

Совершенствование программного обеспечения развития базовых компетенций у учащихся 10-11 классов .....23

**Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich**

Perfecting of the software for the development of fundamental competencies in the students of 10-11 grades .....43

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список Опубликованный работ

List of published works .....48

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**NORMURODOV SHAROFIDDIN MUXIDDINOVICH**

**10-11 SINF O‘QUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI  
RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY TA‘MINOTINI  
TAKOMILLASHTIRISH.**

**13.00.06 – Raqamli ta‘lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2023.2.Phd/Ped4835 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb sahifaning www.tdpu.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida www.ziyo.net uz manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xalikov A’zam Abdusalomovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Shodiyeva Matluba Jo‘rayevna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**O‘rozmetova Shoira Azadbayevna**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2021.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025- yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86; e-mail: tdpu\_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy. Tel: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**Z.N.Mamarajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, ped.f.d., professor

**R.G.Isyanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, ped.f.n., dotsent

**M.E.Mamarajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, ped.f.d., professor

## **KIRISH (fan doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati** Jahon ta'lim muassasalarida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning dasturiy ta'minot vositalari yordamida ta'lim oluvchilarni tayanch kompetensiyalarini takomillashtirishning kreativ modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Butun jahon forumida ta'limning barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi "Ta'lim-2030" Inchxon deklaratsiyasida qabul qilindi va unga ko'ra butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish ta'lim taraqqiyotini belgilovchi omil sifatida qaraldi. Ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida mutaxassislarni tayyorlash, mutaxassislarning qobiliyatini raqamli iqtisodiyot va ishlab chiqarish sohasidagi texnologiyalashuvlar va o'zgarishlar jarayonida moslashish, nostandart vaziyatlarda yechimlarni topishga va mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, integrativ yondashuv mexanizmlarini yaratish, raqobatbardosh mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan amaliy loyihalarni qo'llash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida dasturiy ta'minotni takomillashtirish jarayonida o'quvchilarning axborot madaniyatini rivojlantirish va unga ta'sir etuvchi omillarni, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, dasturiy ta'minotini ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori sinf o'quvchilarini axborot madaniyatini rivojlanganlik darajasini aniqlash indikatorlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSH, Rossiya, Bolgariya, Avstraliya, Janubiy Koreya, Xitoy, Qozog'iston kabi bir qator mamlakatlarda yosh avlod tayanch kompetensiyalarini, axborot madaniyatini rivojlantirish, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim sifatini oshirish, ta'limda dasturiy ta'minot texnologiyalarini joriy etishga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga ko'ra elektron dasturiy ta'minotini axborot texnologiyalari sohasidagi zamonaviy taraqqiyot hamda yangi raqamli media va o'quv vositalari keng qo'llanilib, media savodxonlik, axborot madaniyati deyarli butun dunyo ta'lim tizimida eng asosiy tayanch kompetensiyalardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda millatning ma'naviy salohiyoti va umuminsoniy qadriyatlarga, hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim jarayonlarini barpo etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Jamiyat taraqqiyoti uchun har jihatdan sog'lom, barkamol yoshlarni shakllantirishga bo'lgan talab hamda ehtiyoj tufayli bugungi ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlar axborot texnologiyalarining yaxlitlik, o'quv-tarbiyaviy jarayon va uning natijalarini loyihalash va oldindan kafolatlash, ta'lim-tarbiya jarayonining ketma-ketligi, tashxislashuvi, uzviyligi, aloqadorligi, o'quv materiallari o'zlashtirilishi individual darajasi o'quv-biluv bosqichlariga muvofiq izchil sur'atda o'sib borishini ta'minlashga qaratilgan ta'limga oid islohotlarda aynan davlat siyosati ustuvorligi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079 son "Raqamli O'zbekiston - 2030"

strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni it-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida o'qitishning muammolari, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'limni tashkil etish B.Abdullaeva, A.Azamov, Sh.A.Alimov, M.Jumaev, X.B.Norbo'taev, R.G.Isyanovlar; ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati B.N.Alimov, M.M.Vahobov, N.A.Muslimov, A.A.Xasanov, K.R.Atabaeva, S.Y.Temurov, T.Bugubayeva, ta'lim tizimini axborot texnologiyalari sohasida A.Abduqodirov, Begimqulov.U.Sh, M.E.Mamarajabov, O'.Tolipovlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilaridan ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari bo'yicha E.I.Artamonova, A.R.Bektenyarova, E.G.Doroshenko, J.Fayzullayev, N.V.Gonnova, P.G.Kulaginlar, fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv masalalari bo'yicha Z.M.Bolshakova, S.A.Korolkova, F.Gogolen, I.A.Zimnyalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xorijdan Bill Robers, Mal Coad, F.Delamare va U.M.Bundina, B.F.Skinner, S.K.Mangel, W.Hutmacher kompetensiyaviy yondashuv haqidagi hozirgi kunda ta'lim sohasidagi rivojlantirishning ahamiyati yuzasidan tadqiqotlar olib borishgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** 10-11 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni

rivojlantirishning dasturiy ta'minotini joriy etish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

10-11 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

10-11 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning dasturiy ta'minotini yaratish texnologiyalarini aniqlashtirish;

10-11 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning modelini takomillashtirish;

10-11 sinf o'quvchilarida dasturiy ta'minot yordamida tayanch kompetensiyalarni joriy etish metodikasi va samaradorligini takomillashtirish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida 10-11 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish jarayoni bo'lib, Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi, Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 79-umumiy o'rta ta'lim maktabi va Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 5-umumiy o'rta ta'lim maktablaridan, 463 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** 10-11 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy tahliliy, qiyosiy-taqqoslash, diagnostik so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov va matematik ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

10-11 sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari elektron ta'lim resurslarini yaratish talablarini ta'limiy maqsadlar mazmuniga variativ moslashtirish, ijtimoiy muhitning tarkibiy qismlarini individual, psixologik, motivatsion-hissiy va irodaviy, faollik, rivojlanganlik xususiyatlarini bosqichma-bosqich integratsiyalash, fanga oid kompetensiyalarni o'quvchilar kompetentligining o'zaro bog'liqligi va vektorli shakllariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

10-11 sinf o'quvchilarida didaktik va dasturiy vositalar aloqadorligida tayanch kompetensiyalar samaradorligini oshirish, o'quv materiallarini mediaresurslar orqali taqdim etish, o'zlashtirishini elektron nazorat qilish, o'quvchilar va ular orasida ma'lumot almashinishi, yangi tasavvurlar, g'oya va fikrlar elektron ta'lim muhitini masofadan turib o'qitishga imkoniyat yaratilib o'quvchilarning didaktik rivojlanish davrlarini xisobga olgan holda dasturiy ilovalar yaratuvchi bulutli texnologiyalarni uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

tayanch kompetensiyalar asosida dasturiy ta'minotni yaratish orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish modeli elektron ta'lim resurslariga qo'yilgan didaktik, psixologik talablar mazmunini shakllantiruvchi axborot bazalari bilan ishlash samaradorligini oshirish hamda dars mashg'ulotlari

davomida muammoli vaziyatlar hosil qilish, uning yechimini aniqlashda o'z o'zini boshqarish, veb dasturlash bo'yicha bilim ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslangan tayanch kompetentlikni ijtimoiy buyurtma ehtiyojiga maqsadli moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

10-11 sinf o'quvchilariga dasturiy ta'minotni joriy etish metodikasi va samaradorligi tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi nazariy, amaliy, test, didaktik o'yinlar video darslarni integratsiyalashgan mashg'ulotlarga qo'llash orqali o'qitish samaradorligini ta'minlash, podkastlarni yuklash hamda baholashning mezonlariga obyektivligini motivatsion, raqamlilik va rivojlantiruvchi qiyosiy baholash darajalarini moslashtirish hamda ularning tayanch kompetensiyalariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

10-11 sinf o'quvchilarini dasturiy ta'minotini rivojlantirish bo'yicha yaratilgan o'quv qo'llanmalar darsliklar taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O'quvchilar faoliyatini tayanch kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishda o'quvchilarning qiziqishlarini takomillashtirish ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** bilish nazariyasi metodologiyasi (bilishning dialektik metodi, o'quv fanlari, jamiyat va tabiat hodisalarini tahlil qilishga tizimli yondashuv) hamda pedagogik ta'lim sohasidagi Respublikamiz va xorijda yaratilgan dasturiy ta'minotini, pedagogika va ilmiy-metodik tadqiqotlarga, shuningdek, amaliyotchi o'qituvchilarning tajribasiga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tajriba-sinov ishlarining olib borilganligi hamda ilgari surilgan ilmiy g'oyalarning o'tkazilgan tajriba-sinov natijalaridagi ijobiy o'zgarishlar bilan tasdiqlanganligi va ishonchliligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonida 10-11 sinf o'quvchilarining dasturiy ta'minotini rivojlantirish dolzarb muammo ekanligining asoslanganligi, o'quvchilarda shaxsiy sifatlar majmui, texnologik savodxonlik, ularning axborotlar bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, tanqidiy va mustaqil fikrlash potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar va darajalari, axborot madaniyatini rivojlantirish yo'llari va bosqichlarining o'rganilganligi, o'quvchilarning dasturiy ta'minotida axborot madaniyatini rivojlanganligini baholash mezon va ko'rsatkichlarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dasturiy ta'minotdan foydalangan holda turli ko'rinishdagi ijodiy masalalar echish, nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar orqali ularning kasbiy faoliyatiga yondashuv asosida tizimli o'qitish orqali o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalar asosida tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiladigan ma'lumotlarning qabul qilinishi bilan izohlanadi. O'quvchilarning mashg'ulotlarda o'quv faoliyatini tashkil etish asosida xulosalar chiqarish, olingan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikma, malaka va tayanch kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari aniqlandi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kompetensiyaviy yondashuv asosida umumiy oʻrta taʼlim maktablarida matematika oʻqitish metodikasini takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqishga oid tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

10-11 sinf oʻquvchilarining tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari elektron taʼlim resurslarini yaratish talablarini taʼlimiy maqsadlar mazmuniga variativ moslashtirish, ijtimoiy muhitning tarkibiy qismlarini individual, psixologik, motivatsion-hissiy va irodaviy, faollik, rivojlanganlik xususiyatlarini bosqichma-bosqich integratsiyalash, fanga oid kompetensiyalarni oʻquvchilar kompetentligining oʻzaro bogʻliqligi va vektorli shakllariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar “Matematika va uni oʻqitish metodikasi (Amaliy mashgʻulot)” nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 14-yanvar 11-05-236/04-sonli dalolatnoma). Natijada kompetensiyaviy yondoshuv asosida dasturiy taʼminot yaratish orqali 10-11 sinf oʻquvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil etishga sharoit yaratilgan.

10-11 sinf oʻquvchilarida didaktik va dasturiy vositalar aloqadorligida tayanch kompetensiyalar samaradorligini oshirish, oʻquv materiallarini mediaresurslar orqali taqdim etish, oʻzlashtirishini elektron nazorat qilish, oʻquvchilar va ular orasida maʼlumot almashinishi, yangi tasavvurlar, gʻoya va fikrlar elektron taʼlim muhitini masofadan turib oʻqitishga imkoniyat yaratilib oʻquvchilarning didaktik rivojlanish davrlarini xisobga olgan holda dasturiy ilovalar yaratuvchi bulutli texnologiyalarni uygʻunlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Matematika va uni oʻqitish metodikasi (Amaliy mashgʻulot)” nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 14-yanvar 11-05-236/04-sonli dalolatnoma). Natijada kompetensiyaviy yondoshuv asosida dasturiy taʼminot yaratish orqali oʻquvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini aniqlashga erishildi.

Tayanch kompetensiyalar asosida dasturiy taʼminotni yaratish orqali oʻquvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish modeli elektron taʼlim resurslariga qoʻyilgan didaktik, psixologik talablar mazmunini shakllantiruvchi axborot bazalari bilan ishlash samaradorligini oshirish hamda dars mashgʻulotlari davomida muammoli vaziyatlar hosil qilish, uning yechimini aniqlashda oʻz oʻzini boshqarish, veb dasturlash boʻyicha bilim koʻnikmalarini rivojlantirishga asoslangan tayanch kompetentlikni ijtimoiy buyurtma ehtiyojiga maqsadli moslashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Matematika va uni oʻqitish metodikasi (Amaliy mashgʻulot)” nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 14-yanvar 11-05-236/04-sonli dalolatnoma). Natijada dasturiy taʼminot yaratish orqali oʻquvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga erishilgan.

10-11 sinf oʻquvchilariga dasturiy taʼminotni joriy etish metodikasi va samaradorligi tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi nazariy, amaliy, test, didaktik oʻyinlar, video darslarni integratsiyalashgan mashgʻulotlarga qoʻllash orqali oʻqitish samaradorligini taʼminlash, podkastlarni yuklash hamda baholashning

mezonlariga obyektivligini motivatsion, raqamlilik va rivojlantiruvchi qiyosiy baholash darajalarini moslashtirish hamda ularning tayanch kompetensiyalariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Matematika va uni o‘qitish metodikasi (Amaliy mashg‘ulot)” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 14-yanvar 11-05-236/04-sonli dalolatnoma). Natijada ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga asoslangan dasturiy ta‘minot asosida o‘qitish samaradorligi oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy Attestasiya Komissiyasining (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 shundan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertasiya hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“10-11 sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobda 10-11sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy - pedagogik zaruriyati, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik va dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning dasturiy ta‘minotidan foydalanishga qo‘yiladigan zaruriy talablari bayon etilgan.

Mustaqil Respublikamiz jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini topishi, mamlakatga chet el investitsiyalarini jalb qilish, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, ilmiy-texnika rivojlanishidan orqada qolmasligi uchun jahon andozalariga mos keladigan salohiyatli kompetent kadrlar tayyorlash zaruriyati vujudga keldi. Buyuk Britaniya, Kanada, AQSH, Janubiy Koreya, Rossiyada ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida, pedagogik jarayonlarni rivojlantirish, “O‘qituvchi - o‘quvchi ta‘lim vositasi o‘quv muhitini shakllantirish” bo‘yicha olib borilgan loyihalari amaliyotga tadbiq etilmoqda. O‘quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish, zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga asoslangan dasturiy ta‘minotga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga

qaratilgan tizimli ishlar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadbiq etilgan. Shu bois bu borada olib borilgan ishlar tahlil etilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tayanch kompetensiyalar, dasturiy ta'minot tushunchalari tahlil etilgan.

Bu borada yurtimiz olimlari tomonidan ta'lim tizimida tayanch kompetensiyalarni o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Jumladan, N.Muslimov, Q.T.Olimov, R.Fayzullaev, M.M.Vahobovlarning tadqiqotlarida masalaning didaktik va metodik jihatlari o'rganib chiqilgan. Tadqiqotchi R.Fayzullaev fikricha, kompetensiya "shaxs tomonidan mukammal o'zlashtirgan predmet sanaladi va u tanlagan soha faoliyat yuritish uchun tayyorgarlik mezonini vazifasini bajarsa, kompetentlik undan farqli ravishda shaxsning yo'naltirilgan tasnifi, bitiruvchining ma'lum sohada faoliyat yuritishi uchun shakllantirilgan ko'nikmadir" deb o'rganilgan.


B.N.Alimov esa kompetentlik haqida, "shaxs barcha bilim, ko'nikma va tajribalarning ijtimoiy mavqeyi hamda o'ziga tegishli bo'lgan barcha vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodir ekanligi va haqiqiy moslik darajasi" tushunilishini asoslab bergan.

B.S.Abdullaevaning fikriga ko'ra "bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish, ta'lim vositalarini, tafakkurni rivojlantirish o'quvchilar savodxonligini oshirish masalalariga doir muammolar yechimlari"ni izohlab bergan.

Uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetensiyali yondashuvni tatbiq etish orqali: o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llashga o'rgatish; muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish orqali fan asoslarini o'rganishga bo'lgan etiyotlarini oshirish, qiziqishlarini, faolliklarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini o'stirish; ijodiy faoliyat tajribalarini egallanishiga erishish va kompetent kadrlar tayyorlashdir; olgan bilimlari asosida amaliy faoliyatga tayyorgarligini orttirish orqali kasbga yo'naltirish, ijodiy faoliyat tajribalarini rivojlantirish mustaqil hayotga tayyorlash imkoniyatini yaratishdan iboratdir. Ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlash, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini tarkib toptirish zaruriy vazifalardan biridir O'quvchilar kompetensiyasini motivatsiya, shaxsiy xususiyatlar va qobiliyat rivojlanishi orqali kompetentlik elementlarining o'zaro bog'lanishini quyidagicha tavsiflash mumkin (1- rasm).

O'quvchi qobiliyati uning kompetentligi orqali namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Kompetensiyaviy yondoshuv ta'lim natijalarini nazorat qilish, ya'ni o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni hayotda duch keladigan tanish, notanish vaziyatlarda qo'llashga tayyor ekanligini baholashdan iborat. Kompetentlik o'z bilimlarini tinmay boyitib borish, o'rganish, zamon talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab etadi. Fan texnika taraqqiyoti o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bilan birgalikda tayanch kompetensiyalarga asoslangan dasturiy ta'minotga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan tizimli ishlar

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish talablariga mos holda ishlab chiqilishini talab etmoqda. Dars va darsdan tashqari yuqori samaradorlikka erishishimiz uchun didaktik va dasturiy vositalardan foydalanish zamon talabidir. Dars o‘tish jarayonida o‘qituvchi turli didaktik vosita va didaktik materiallardan foydalanishga harakat qiladi.




**1 – rasm. O‘quvchilar kompetentligi elementlarining o‘zaro bog‘liqligi.**

Ta‘limda didaktik talablar: ta‘limning ilmiyligi va tushunarligi; o‘quv materiallarini ta‘lim oluvchilarga mazmunli va tushunarli tarzda bayon etilishini ta‘minlash; ta‘limning tizimlilik va izchillik talabi ta‘lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlari bilan fanning nazariy qismining murakkablik darajasi o‘rtasida uyg‘unlikni ta‘minlash; o‘quv materiallarining o‘ta murakkab ishlab chiqilishiga yo‘l qo‘ymaslik; ta‘limning ko‘rgazmalilik va ongillik talabi: ta‘lim oluvchilarning obyektlar, jarayonlar va hodisalarni hissiy idrok etish, o‘rganilgan bilimlarni ijtimoiy hayotda hamda amaliyotda qo‘llay olishini ta‘minlash; ta‘limning mustaqil va faollik talabi, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim asosida ta‘lim oluvchilarning ta‘lim jarayonida o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga faol xatti-harakatlarini ta‘minlashdan iborat.

Ta‘lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi. Ta‘lim jarayonini didaktik elementlari besh qismdan iboratdir: ta‘limning maqsadi - nima uchun o‘qitish kerak; ta‘limning mazmuni - nimaga o‘qitish kerak; ta‘limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo‘llari; ta‘lim beruvchi o‘qituvchi; ta‘lim oluvchi o‘quvchi.

O‘qituvchilarning vazifasi o‘quvchini dastlab qiziqtirib qolgan ishning o‘zi bilan shug‘ullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va

kengaytirish, ta'sirchan qilish, qiziqishlarining markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug'ullanish istagiga, mayliga aylantirishdir. Talim jarayonida o'zlashtirish samaradorligi quyidagi yo'nalishlarga bog'liq.



**2- rasm. Talim jarayonida o'zlashtirish samaradorligi yo'nalishlari.**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan bo'limga oid dars mashg'ulotlarini loyihalashtirishda bir qator tamoyillarga tayaniladi.

Loyihalashtirish tamoyillari quyidagilar: markazlashtirish tamoyili, refleksivlik tamoyili, natijaviylik tamoyili, ko'p omillik tamoyili, o'quvchi shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili, ta'lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili, ta'lim texnologiyasining innovatsion modeli, o'quv mashg'uloti loyahasini tayyorlash.

Didaktik vositalar plakatlar, fotosuratlar, audio, televizion va videomateriallar, axborot texnologiyalari asosidagi materiallar, kompyuter texnologiyalari yordamida dars jarayonlarini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vositalar hisoblanadi.

Dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida dars jarayonlarini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik resurslardir. Dasturiy vositalar ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning samarali shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'qitish vositasi sifatida qo'llaniladi. Dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot, texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi. Dasturiy vositalar ta'lim –tarbiya samaradorligini oshirishning shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Dasturiy vositalarning qo'llanilishini quyidagicha izohlash mumkin. Dasturiy vositalarga: elektron darslik; elektron qo'llanma; elektron ensiklopediyalar kiradi. Pedagogik dasturiy vositalar guruhlari esa: namoyish etuvchi, nazorat qiluvchi, o'rgatuvchi, dasturlardan iborat. 10-11 sinf o'quvchilarida tayanch


kompetensiyalarni rivojlantirishning dasturiy ta'minotiga qo'yiladigan zarur talablar quyidagilarni tashkil etadi. Dasturiy talablar didaktik va uslubiy talablardan iborat bo'ladi. Uslubiy talablar multimedia va raqamli ta'lim resurslari ta'lim nazariyasida ko'zda tutilgan vazifalarni o'zida to'liq aks ettira olishi, shu bilan birga, ta'limning didaktik talablari asosida ishlab chiqilishi kerak va didaktik talablar, psixologik talablar, ergonomik talablardan iborat. Dasturiy ta'minotga qo'yiladigan ta'limiy muammo talablari esa ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammo bo'lib, ta'lim kompetensiyasi – bu kelajakda o'quvchilar jamiyatda o'z kasbini tanlashi uchun 10-11 sinf o'quvchilari, zaruriy ravishda shaxsni ijtimoiy ahamiyatli va samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, faoliyat tajribasi, motivatsiyasi, mantiqiy fikrlashi, qiziqishlari innovatsion yangiliklarga intilishi kasbga yo'naltirilganligi jamlanmasidir. Xulosalarimiz asosida dasturiy ta'minotning yo'lga qo'yilishi 10-11 sinf o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish lozim ekanligi aniqlandi va dastur yaratilib amaliyotda foydalanildi.

**10-11 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning dasturiy ta'minotini joriy etish metodikasi** deb nomlangan ikkinchi bobda, 10-11 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning dasturiy ta'minotini yaratish texnologiyalari va bosqichlari, dasturiy ta'minotini joriy etish modeli va mazmuni, dasturiy ta'minot asosida o'qitish metodikasi yoritilgan.

Dasturiy ta'minotning maqsadlariga mos keladigan dasturlash tillari va platformalarni tanlash muhim, agar dars web asosida yaratilsa Django, Frank kabi python web ramkalari HTML, CSS va java Script uchun esa Swift dan foydalanish mumkin. Django - bu har qanday loyihaning barcha maqsadlari uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan muhim darajadagi va umuman foydali dasturlash tili bo'lgan Python bilan yaratilgan bepul, to'liq stekli, ochiq manbali veb-sayt tizimi. Python, ayniqsa, ma'lumotlar bazasi, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, mashinalarni o'rganish, sun'iy intellekt ilovalari bilan mashhur. Django - bu mijozlar boshqaruv panelini yaratish uchun chinakam foydali vosita va ajablanarlisi, SQLite, MySQL va hatto PostgreSQL kabi turli xil ma'lumotlar bazasini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu tuzilma ham ma'lum administrator qobiliyatlari uchun ajoyib ishlaydi. Darhaqiqat, butun dunyodagi eng taniqli veb-saytlardan ba'zilar Django dan foydalanadi. HTML – bu (ing. HyperText Markup Language, uzb. Giper matnli belgilash tili) bo'lib, umumjahon internet tarmog'idagi hujjatlar uchun standartlashtirilgan belgilash tili hisoblanadi. Barcha veb-sahifalarda HTML-belgilar mavjud bo'lib ular brauzerlar tomonidan izohlanadi. Natijada formatlangan matn kompyuter yoki mobil qurilmaning ekranida aks etadi. Dastur yaratishda suniy intellekt (IT); (sun'iy intellekt mobil qurilmadagi dasturlar mavzular, testlar, amaliy ishlarni o'zida saqlaydi, bajariladigan amallarning turiga qarab tegishli dasturdan foydalaniladi bepul foydalanish mumkin). Dasturiy ta'minot yaratishning bosqichlarini quyidagicha talqin etdik.

Rejalashtirish (Tahlil) bosqichi: ushbu bosqichda loyihaning maqsadlari, foydalanuvchi talablari aniqlanadi va tadqiqot ishlab chiqishning umumiy hajmi baholanadi. Loyihalashtirish: ushbu bosqich dasturiy ta'minot talablarini aniqlash,

yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni o'rganish va mumkin bo'lgan yechimlarini baholashni o'z ichiga oladi. Dizayn: ushbu bosqichda dasturiy ta'minot arxitekturasi ishlab chiqiladi. Rivojlanish: ushbu bosqichda dasturiy ta'minot kodi amalga oshiriladi, shu jumladan dasturiy ta'minotning barcha tarkibiy qismlarini oldindan ishlab chiqilgan spetsifikatsiyalar va talablarga muvofiq yozish va diskaskadrovka qilish jarayoni. Sinov: ushbu bosqichda dasturiy ta'minot talablar va spetsifikatsiyalarga muvofiqligi uchun sinovdan o'tkaziladi. Ushbu bosqich vazifasi dasturning funkcionalligi, ishlashi, xavfsizligi va muvofiqligini tekshirishni o'z ichiga oladi. Amalga oshirish: ushbu bosqichda dasturiy ta'minot juda tezlikda ishga tushurishga tayyor. U oxirgi foydalanuvchi kompyuterlarida yoki korxonada serverlarida o'rnatiladi va sozlanadi. Kuzatmoq: dasturiy ta'minot joriy etilganidan so'ng, uni qo'llab quvvatlash boshlanadi, shu jumladan xatolarni tuzatish, yangi funksiyalarni qo'shish va yangilash.



**3-rasm. STEAM ta'lim texnologiyasi asosida dasturiy ta'minot bosqichlari.**

Dastur tuzulishiga kirish. Avval dastur kodini tashkil qilish jarayoni uni kichikroq va boshqariladigan qismlarga bo'lish imkonini beradi. Dasturning tuzilishi komponentlarning bir biri bilan o'zaro ta'sirini, ular qanday tashkil etilganligini va qanday bajarilishini belgilab beradi. Dastur tuzilmasiga kirishning asosiy maqsadi dasturni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va qo'llab quvvatlashni soddalashtirishdir. Dasturni tarkibiy qismlarga bo'lish ishlab chiqaruvchilarga kodning kichik qismlari ustida mustaqil ravishda ishlashga imkon beradi, bu esa disk raskadrovka va xatolarni aniqlashni osonlashtiradi. Bundan tashqari agar kerak bo'lsa yaratilgan dasturni kattalashtirish va uni o'zgartirish osonroq. Dasturiy ta'minot o'quvchilar uchun o'rganishi lozim bo'lgan bilimlar, tushunchalar, turli fanlar orasidagi bog'lanishni ta'minlash va amaliyotda qo'llashga qaratiladi. Ko'p yillik ijodiy izlanishlarimiz natijasida STEAM ta'lim texnologiyasining mohiyatidagi fanlararo integrasiyani amalga oshirish muhim ahamiyatli hisoblanib o'quvchilarni fanga qiziqtirishning maqbul usulidir. STEAM yondashuvining boshqa texnologiyalardan asosiy farqi shundaki, o'quvchilar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ongni, qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari uqib oladilar.


Masalan, to'g'ri to'rtburchak diagonallarini uy poydevorini qurishdagi jarayon bilan, Buning echimi esa masalalarni hayotiy jarayonlar bilan bog'lash, o'quvchilar tasavvurini boyitish va darsda ko'rgazmalilikdan unumli foydalanish asosidadir. **STEAM** bu tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarining qisqartmasidir. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotgan texnologiyadir. **STEAM** texnologiyasi asosida dasturiy ta'minot bosqichlarini yaratishga harakat qildik bu esa ilmiy tadqiqotimizni boshqa tadqiqotlardan farqli tomonlarini ko'rsatadi bu quyidagicha.

10-11 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda dasturiy ta'minotni takomillashtirish mavzusi yoritilib uning modelini quyidagicha tahlil etdik. Modelning maqsadli blogida ijtimoiy buyurtmaga ko'ra maqsad bayon etilgan. Modelning tashkiliy metodologik blogida tayanch kompetensiyalarni rivojlantiruvchi yondashuvlar tamoyillar texnologiyalar keltirilgan. Modelni dasturiy ta'minot blogida tayanch kompetensiyalarni rivojlantiruvchi kompetentlari berilgan.

Bu modelda 10-11 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda dasturiy ta'minotni takomillashtirish jarayonlari aks ettirilib 4 blokdan iborat etib joylashtirildi. Maqsadli blok, tashkiliy blok, mazmunli blok va natijalardan iborat.

